TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI



# TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI



2025- yil yanvar



**2025-yilning yanvar oyida, Toshkent shahrida jami 3 646,4 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 113,1 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2025-yil 1-fevral holatiga qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, soni *birlikda*

## Yillar kesimida soni




**3 285** — Bino va inshootlar qurish

**726** — Fuqarolik obyektlarini qurish

**2 680** — Ixtisoslashtirilgan quilish ishlari

## Hududlar kesimida




Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2024-yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 90,3 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 49,1 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 90,1 foiz bo‘lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 10,9 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,0 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 40,1 foiz ulushni va 88,1 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga: | | o'tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.02.2024-y. | 01.02.2025-y. | |
| **Toshkent shahar** | **7 408** | **6 691** | **90,3** |
| tumanlar: | | | |
| Bektemir | 184 | 176 | 95,7 |
| Mirzo Ulug'bek | 971 | 865 | 89,1 |
| Mirobod | 663 | 570 | 86,0 |
| Olmazor | 551 | 480 | 87,1 |
| Sergeli | 478 | 405 | 84,7 |
| Uchtepa | 433 | 366 | 84,5 |
| Chilonzor | 874 | 747 | 85,5 |
| Shayxontohur | 534 | 474 | 88,8 |
| Yunusobod | 873 | 778 | 89,1 |
| Yakkasaroy | 746 | 694 | 93,0 |
| Yangihayot | 279 | 339 | 121,5 |
| Yashnobod | 822 | 797 | 97,0 |



# 2025-yil 1-fevral holatiga ko‘ra, Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

**Mirzo Ulug‘bek (12,9)**



**Yunusobod (11,6)**




**Yashnobod (11,9)**





# Qurilish ishlari
# 2025-yil yanvar oyi uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| **Toshkent shahar** | **3 646,4** | **848,2** | **2 059,1** | **739,2** |
| tumanlar: | | | | |
| Bektemir | 63,4 | 13,0 | 45,3 | 5,1 |
| Mirzo Ulug‘bek | 328,2 | 31,5 | 258,6 | 38,1 |
| Mirobod | 294,1 | 80,5 | 186,5 | 27,0 |
| Olmazor | 208,9 | 64,4 | 106,2 | 38,2 |
| Sergeli | 112,9 | 0,2 | 81,8 | 30,9 |
| Uchtepa | 84,3 | 0,0 | 68,2 | 16,1 |
| Chilonzor | 163,4 | 3,6 | 140,2 | 19,6 |
| Shayxontohur | 213,0 | 111,0 | 73,8 | 28,2 |
| Yunusobod | 543,4 | 249,6 | 239,6 | 54,2 |
| Yakkasaroy | 340,2 | 116,7 | 196,3 | 27,2 |
| Yangihayot | 82,4 | 26,5 | 37,5 | 18,4 |
| Yashnobod | 279,0 | 30,9 | 220,4 | 27,7 |
| Taqsimlanmagan hajm | 933,4 | 120,1 | 404,7 | 408,5 |



**2025-yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 848,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2024-yilning mos davriga nisbatan 179,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.**

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Shayxontohur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 23,3 % yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 179,1 %) Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 14,3 % yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,4 m.) ga to‘g‘ri keldi.**

**2025-yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,5%i to‘g‘ri kelib, 2024-yil yanvar oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 1,3 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ni tashkil etgan holda 2 059,1 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**

**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**




**56,5**
2025-yil yanvar

**63,3**
2024-yil yanvar



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush hududdagi ko‘rsatkichi Mirzo Ulug‘bek tumanida (258,6 mlrd. so‘m yoki ulushi 78,8 %) Yunusobod tumanida (239,6 mlrd. so‘m yoki ulushi 44,1 %), va Yashnobod tumanida (220,4 mlrd. so‘m yoki ulushi 79,0 %) ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 20,3 %ni tashkil etdi yoki 739,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 29,4 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 617,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 0,8 % va 99,2 % ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2025-yil yanvar oyida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **67,2** % i yoki **2 450,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**24,0 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **588,4** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **24,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 343,5** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,8** % ni tashkil etdi.

**54,8 %**

**21,2 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **518,5** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **21,2** % ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2025-yil yanvar oyida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **3 646,4** | **113,1** | **100,0** |
| tumanlar: | | | |
| Bektemir | 63,4 | 122,1 | 1,7 |
| Mirzo Ulug‘bek | 328,2 | 110,7 | 9,0 |
| Mirobod | 294,1 | 97,8 | 8,1 |
| Olmazor | 208,9 | 111,7 | 5,7 |
| Sergeli | 112,9 | 100,2 | 3,1 |
| Uchtepa | 84,3 | 90,9 | 2,3 |
| Chilonzor | 163,4 | 101,8 | 4,5 |
| Shayxontohur | 213,0 | 146,1 | 5,8 |
| Yunusobod | 543,4 | 135,3 | 14,9 |
| Yakkasaroy | 340,2 | 141,1 | 9,3 |
| Yangihayot | 82,4 | 100,5 | 2,3 |
| Yashnobod | 279,0 | 103,7 | 7,7 |
| Taqsimianmagan hajm | 933,4 | 108,0 | 25,6 |



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

**100,0 %**

**2023-yil yanvar-dekabr**

- **70,0 %** — Bino va inshootlarni qurish
- **12,3 %** — Fuqarolik obyektlarini qurish
- **17,7 %** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**2024-yil yanvar-dekabr**

- **69,1 %** — Bino va inshootlarni qurish
- **12,9 %** — Fuqarolik obyektlarini qurish
- **18,0 %** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

***Ma’lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*

| | 2024-yil yanvar | 2025-yil yanvar |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 7,1 | 18,7 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 61,5 | 52,0 |
| Norasmiy sektor | 31,4 | 29,3 |



Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 18,7 % ni tashkil etib, 2024-yil yanvar ko‘rsatkichga nisbatan 11,6 % punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2024-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 9,5 % punktga kamayib, 52,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 29,3 % ni tashkil etib, 2024-yil ko‘rsatkichiga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 29,4 % ni tashkil etdi va 2024-yil yanvariga nisbatan 19,0 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 70,6 % (19,0 % punktga kamayish)ni tashkil etdi.**

***ulushi % da***



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga kamaydi va 36,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 63,5 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga ko‘paydi.



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2025-yil yanvar

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Bino va inshootlarni qurish | Fuqarolik obyektlarini qurish | Ixtisoslashti-rilgan qurilish ishlari |
| **Toshkent shahar** | **3 646,4** | **2 519,8** | **470,3** | **656,4** |
| tumanlar: | | | | |
| Bektemir | 63,4 | 43,0 | 9,4 | 11,0 |
| Mirzo Ulug‘bek | 328,2 | 206,3 | 55,3 | 66,5 |
| Mirobod | 294,1 | 204,9 | 46,7 | 42,4 |
| Olmazor | 208,9 | 141,1 | 23,7 | 44,1 |
| Sergeli | 112,9 | 72,6 | 13,5 | 26,7 |
| Uchtepa | 84,3 | 60,7 | 10,9 | 12,8 |
| Chilonzor | 163,4 | 106,1 | 26,0 | 31,3 |
| Shayxontohur | 213,0 | 152,0 | 31,8 | 29,2 |
| Yunusobod | 543,4 | 381,4 | 56,0 | 105,9 |
| Yakkasaroy | 340,2 | 221,4 | 38,9 | 79,8 |
| Yangihayot | 82,4 | 52,6 | 13,4 | 16,3 |
| Yashnobod | 279,0 | 167,5 | 44,7 | 66,8 |
| Taqsimlanmagan hajm | 933,4 | 710,1 | 99,9 | 123,4 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2025-yil yanvar



# 2025- yilning yanvar oyida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma’lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Yunusobod tumani (543,4 mlrd.so‘m), Yakkasaroy tumani (340,2 mlrd.so‘m), Mirzo Ulug‘bek tumani (328,2 mlrd.so‘m), Mirobod tumani (294,1 mlrd.so‘m)ga to‘g‘ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**

Aloqa telefoni: ***(71) 203-88-18 (19)***